

BYUDJET TASHKILOTLARIDA ISH HAQI HISOBINING AMALDAGI HOLATI

Abdumajitov Shaxobiddin Shamsiddin o'g'li


TDIU magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda oliy ta'lim tashkilotlari xodimlariga ish haqi hisobining amaldagi joriy holati o'rganilgan bo'lib, xarajatlar smetasida hamda shtatlar jadvalida ish haqini rejalashtirish, ish haqiga ajratiladigan mablag'larini davlat byudjetidan moliyalashtirish tartiblari, oliy ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni daromadlar va xarajatlar smetasida aks ettirish qonunchilikdagi o'zgarishlarning ta'sirini tahlil qilishga va oliy ta'lim muassasalarini xodimlariga ish haqi hisobini yuritishning umumiy samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot ushbu yo'nalaishda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni buxgalteriya hisobini tashkil etishda ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama baholashni taklif qiluvchi rasmiy qarorlar, moliyaviy hisobotlar va ilmiy adabiyotlarni tahliliy ko'rib chiqishga asoslangan.

Kalit so'zlar: avans, tabel, xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali, o'rtacha ish haqi, moliyaviy hisobotlar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga, xususan oliy ta'lim tizimini yanada samarali faoliyatini ta'minlashga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli hamda izchil isloxtlar natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor vazifalari bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy va soha tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qodir bo'lgan yangi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan sharoitlar shakllantirildi. Bu borada amalga oshirilayotgan isloxtlarda ta'lim sifatini oshirishning asosiy e'tibor oliy ta'lim muassasalari pedagog hodimlari mehnatini munosib rag'batlantirish tizimini shakllantirishga qaratadi. Buning yaqqol misoli sifatida so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimi faoliyatini rivojlantirish borasida, oliy ta'lim muassasalari pedagog-hodimlarini oylik qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin. Jumladan, Prezidentimizning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari hodimlarining mehnatiga haq to'lash to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Fan va oliy ta'lim sohasi hodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari va boshqalar.

Mehnat munosabatlarini, shu jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lashni yuridik asosini mehnat to'g'risidagi qonuniy hujjatlar, xo'jalik sub'yektlarning jamoa shartnomalarini va boshqa muayyan me'yoriy hujjatlar tashkil etadi. Ish haqi, o'z navbatida, asosiy va qo'shimcha ish haqiga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Mehnatga haq to'lash shakllari¹.

Xodimning mehnat haqini topish uchun razryad bo'yicha tarif koeffitsentini eng kam ish haqi miqdoriga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Byudjet tashkilotlarida asosan vaqtbay asosida ish haqi to'lanadi. Bunda xar qaysi byudjet tashkiloti namunaviy shtatlar jadvaliga asoslanib shtat birliklarini shakllantiradi va belgilangan tartibda razryadlarini qo'yib oylik ish haqini (okladlarini) hisoblaydi va shtatlar jadvalini shakllantiradi. Hozirda byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvaliga kiritilgan ba'zi lavozimlar bo' yichal qonunchilikka asosan belgilangan oylik ish haqlari tayinlanadi. Ish haqini hisoblab yozish uchun quyidagilar asosiy hujjatlar hisoblanadi:

- ❖ xodimlarni tasdiqlangan shtatlar jadvali;
- ❖ tashkilotning ishga qabul qilganlik haqidagi buyruqlari;
- ❖ bo'shatganlik haqidagi buyruqlari;
- ❖ ish haqi stavkalariga muvofiq joydan-joyga ko'chirish buyruqlari;
- ❖ 421-son shakldagi foydalanilgan ish vaqti hisobi va ish haqi hisoblash tabeli va boshqa hujjatlar.

Tabellar tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan shaxslar tomonidan har oyda belgilangan shaklda yuritiladi. Tabellar butun tashkilot bo'yicha yoki tuzilmaviy bo'linmalar (bo'limlar, bo'linmalar, fakultetlar, laboratoriyalar va boshqalar)ga bo'lingan holda yuritiladi. Oying oxirida tabel bo'yicha ishlangan kunlarning umumiy miqdori, shuningdek, ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. To'ldirilgan va tegishli imzolar bilan rasmiylashtirilgan tabel va boshqa hujjatlar belgilangan muddatda ish haqi hisoblab yozish uchun buxgalteriyaga topshiriladi (2-rasm).

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

Oyning birinchi yarmi uchun xodimlarga avans beriladi. Avans belgilangan tartibda ushlab qolinishi kerak bo'lgan soliq summasini hisobga olmagan holda, qoidaga ko'ra, ish haqining 40 foizi miqdorida belgilanadi. Avans 389-son shakldagi ish haqi, avans berish uchun to'lov qaydnomasi bo'yicha beriladi.

Oy uchun ish haqi hisoblab yozish va oyning ikkinchi yarmi uchun to'lash odatda, T-49-son shakldagi hisob-kitob to'lov qaydnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitob to'lov qaydnomasiga xodimlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, hisoblangan ish haqi va nafaqalar summasi, berilgan avans, ushlangan soliqlar va boshqa summalar yoziladi.

Ishdan bo'shshda yoki ta'tilga ketishda qilingan hisob-kitoblari 425-son shakldagi ta'til berish (ishdan bo'shsh) bo'yicha hisob yozuvi bo'yicha amalga oshiriladi. Bu hisob-kitoblari bo'yicha hisoblangan summalar joriy oy uchun ochilgan hisob-kitob-to'lov qaydnomalariga kiritiladi.

2-rasm. Ish haqini buxgalteriya hisobida yuritish registrlari².

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya bo'limida ish haqi hisobini yuqoridagi hisob yuritish registrlarida yuritilib kelinmoqda. Quyida 2024-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga byudjetdan ajratilgan mablag'larning chegaralangan miqdorining oliy ta'lim tashkilotlari kesimida taqsimoti to'g'risidagi ma'lumot ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval.

2024 yil byudjetdan ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi xarajatlari taqsimoti.

ID	Byudjet tashkilotlarining nomlanishi	Jami	Ish haqi va unga tenglashtiruvchi	Yagona ijtimoiy soliq	Boshqa joriy xarajatlari
1	Andijon davlat universiteti	12,807,175.0	8,430,000.0	237,600.0	4,139,575.0
2	Buxoro davlat pedagogika instituti	9,731,603.0	8,040,000.0	987,924.0	703,679.0
3	Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali	1,561,054.0	1,158,000.0	153,018.0	250,036.0
4	Nukus davlat pedagogika instituti	14,083,186.0	11,940,000.0	1,322,184.0	821,002.0
5	Samarqand davlat universiteti	25,346,677.0	15,819,000.0	381,600.0	9,146,077.0

Yuqoridagi jadvalda oliy ta'lim tashkilotlariga davlat byudjetidan moliyalashtirilgan jami mablag'lar jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari tahlili keltirilgan bo'lib, unga ko'ra Andijon davlat universitetiga jami 12 807 175 ming jumladan 8 430 000 ming ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga to'g'ri kelmoqda. Foiz ulushida tahlil qiladigan bo'lsak, jami moliyalashtirilgan mablag'ning 66 foizi oliy ta'lim tashkilotining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga to'g'ri kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 26-dekabr 2013-yil. O'RQ-360-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 iyuldagi PQ-3876-sonli "Fan va oliy ta'lim sohasi hodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
4. A.J.To'ychiyev, A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Tursunov Byudjet hisob. Darslik 2018 yil. 316 b.
5. А.С Бакайбаева. Начисление и выплата заработной платы и приравненных к ней платежей в бюджетных организациях. Иктисод ва молия / экономика и финансы 2013, 7 47-53 стр.

² Muallif tomonidan tayyorlandi.